I. XIZMATLAR

2025- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida 13 121 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

2025- yil 1- yanvar holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 10 853 tasi yoki 67,1 foizi kichik biznes sub‘ektlarini tashkil etadi.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo‘yicha hajmi 20 055,6 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘sish 112,1 foizni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va o‘sish sur‘atlari

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)*	*O‘sish sur‘ati, % da*	*shundan,*		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Ulushi, % da*
Jami	**20 055,6**	**112,1**	**18 484,4**	**110,1**	**11 688,4**	**113,7**	**58,3**
Navoiy sh.	5931,2	112,3	36 187,9	107,4	2 476,2	118,8	41,7
Zarafshon sh.	1 730,6	113,1	19 358,2	109,4	955,5	113,3	55,2

davomi

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)*	*O‘sish sur‘ati, % da*	*shundan,*		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Ulushi, % da*
G‘ozg‘on sh.	42,3	114,4	4 552,5	111,9	25,4	113,8	60,1
Karmana t.	2101,9	115,1	14 981,4	111,2	1 241,0	107,9	59,0
Konimex t.	313,3	113,9	8 399,1	112,9	265,9	110,8	84,9
Qiziltepa t.	1 277,0	112,7	7 824,7	109,6	952,9	109,8	74,6
Navbahor t.	787,8	113,5	6 473,2	110,4	598,3	111,9	75,9
Nurota t.	554,3	112,2	6 145,3	109,1	475,4	109,8	85,8
Tomdi t.	166,6	111,9	10 816,7	112,7	128,6	109,8	77,2
Uchquduq t.	444,4	112,5	11 251,3	110,4	380,4	110,1	85,6
Xatirchi t.	1 092,1	113,7	5 084,3	110,6	820,1	110,2	75,1



Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

	mlrd. so‘m	*o‘sish sur‘ati, % da*	*yakunga nisbatan, % da*
Jami xizmatlar	**20 055,6**	**112,1**	**100,0**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	634,9	117,9	3,2
moliyaviy xizmatlar	3 407,9	118,1	17,0
transport xizmati	2 635,9	118,2	13,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 405,5	117,9	12,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 527,3	110,4	27,6
savdo xizmatlari	4 237,5	110,4	21,1
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	356,3	127,2	1,8
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	606,6	99,3	3,0
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	268,8	103,5	1,3
ijara xizmatlari	179,2	100,6	0,9
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	291,5	106,7	1,5
boshqa shaxsiy xizmatlar	434,2	108,8	2,2
me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	746,2	104,2	3,7
boshqa turdagi xizmatlar	729,3	106,1	3,6

Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari *(2023- yil yanvar- dekabriga nisbatan, % da)*



Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (127,2), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,9%), moliyaviy xizmatlar (118,1 %), transport xizmatlari (118,2%), savdo xizmatlari (110,4 %) va shaxsiy xizmatlar (108,8 %)da o‘sish sur‘ati yuqori bo‘ldi.

Xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi

(2024- yil yanvar- dekabr oylari, % da)

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (27,6 %), sav do (21,1 %), moliyaviy (17,0 %), transport (13,1 %) hamda ме‘morchilik sohasidagi xizm atlar

(3,7%)ga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

	ming so‘m	*O‘sish sur‘ati, % da*
Jami xizmatlar	**18 484,4**	**110,1**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha		
aloqa va axborotlashtirish xizmati	585,1	115,7
moliyaviy xizmatlar	3 140,9	116,0
transport xizmati	2 429,4	116,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 217,0	115,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 094,3	108,4
savdo xizmatlari	3 905,6	108,4

davomi

	ming so‘m	*O‘sish sur‘ati, % da*
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	328,4	124,9
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	559,0	97,5
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	247,7	101,6
ijara xizmatlari	165,1	98,8
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	268,7	104,7
boshqa shaxsiy xizmatlar	400,2	106,8
me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	687,7	102,3
boshqa turdagi xizmatlar	672,2	104,2

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar 2024- yil yanvar-dekabr oylarida 18 484,4 ming so‘mni yoki 2023- yilning yanvar- dekabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 110,1 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘atlari, % da



(5 094, i

(3 140,9 ming so‘m) yuqori ulushini tashkil etdi. r

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (124,9 %), transport xizmatlari (116,1 %), moliyaviy xizmatlar (116,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,7 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (108,4 %), savdo xizmatlari (108,4 %) va shaxsiy xizmatlar (106,8 %) da o‘sish sur‘ati yuqori bo‘ldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so‘m



Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Navoiy shahri yetakchi o‘rinni egalladi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 36 187,9 ming so‘mga yetdi. Zarafshon shahar (19 358,1 ming so‘m) va Karmana (14 981,4 ming so‘m) tumanida ham boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko‘paygan. G‘ozg‘on shahar (4 552,5 ming so‘m), Xatirchi (5 084,3 ming so‘m) va Nurota (6 145,3 ming so‘m) tumanlarida esa boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi kamligini ko‘rishimiz mumkin.

Xizmatlar hajmida katta ulushga ega bo‘lgan sohalar

T/r	*Iqtisodiy faoliyat turlari*	*Hajmi mlrd. so‘m*	*O‘sish sur‘ati, % da*	*Jamiga nisbatan ulushi, % da*
	Jami – xizmatlar	**20 055,6**	**112,1**	**100,0**
1.	**Yashash va ovqatlanish xizmatlari**	**5 527,3**	**110,4**	**27,6**
	shundan:			
	Yashash bo‘yicha xizmatlar	126,4	95,1	0,6
	Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar etkazish bo‘yicha xizmatlar	5 400,9	110,8	26,9
2.	**Savdo xizmatlari**	**4 237,5**	**110,4**	**21,1**
	shundan:			
	shu jumladan:avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar; avtomobillar va motosikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	444,1	110,3	2,2
	Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)	473,2	114,1	2,4
	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar	3 320,2	109,9	16,6
3.	**Moliyaviy xizmatlar**	**3 407,9**	**118,1**	**17,0**
	shundan:			
	Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	3 251,8	119,9	16,2
	Sug‘urtalash, qayta sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha xizmatlardan tashqari	115,9	92,2	0,6
	Moliyaviy va sug‘urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar	40,2	88,9	0,2
4.	**Transport xizmatlari**	**2 635,9**	**118,2**	**13,1**
	shundan:			
	Quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar	2 416,8	118,2	12,1
	Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari	204,7	121,3	1,0
	Pochta va kurerlik xizmatlari	14,3	84,8	0,1
5.	**Boshqalar**	**729,3**	**106,1**	**3,6**

2024- yil yanvar- dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida savdo xizmatlarining tarkibi



Huddi shunday, savdo xizmatlaring hajmi 4 237,5 mlrd. so‘mga yetib, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 21,1 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining 78,4 foizini, avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (ularni ta‘mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda) xizmatlari esa 10,5 foizni, ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) 11,2 foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi



“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog‘i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o‘xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o‘qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibida yashash va oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar mavjud bo‘lib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ustunlik qildi – 97,7foiz.

Yashash bo‘yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



2024- yil yanvar- dekabr oylarida ijara xizmatlari

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ijara xizmatlari hajmi 179,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2024- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 72,6 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida ijara xizmatlari dinamikasi



2024- yil yanvar- dekabr oylarida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar



Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2024- yil yanvar- dekabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko‘rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘sish sur‘atlari



2024- yil yanvar- dekabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, *mlrd. so‘m*



2024 - yil yanvar-dekabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **1,3** %ni tashkil etdi.